

**MUHANDISLAR TAYORLOVCHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA
INTERFAOL METODLAR ASOSDA TARIX DARSLARIDA
QO'LLANILADIGAN METODLAR**

Allanazarov Qo'ldosh Olimovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

E-mail: quldosh0616@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kundagi zamonaviy ta'lim tizimining asosini tashkil qiluvchi o'qituvchi va talabalar (o'quvchilar)ning hamkorlikda ta'lim olishini taminlovchi ta'lim metodlari tushunchasi, qo'llanilishi, rivojlanishi, olimlar tamonidan o'rganilishi va tasnifi joy olgan. Shu bilan birgalikda interfaol metodlar va grafik organayzerlar, ularning xususiyatlari, tarix fanida qo'llanilishi, yutuq va kamchiliklari tahlili haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar. Metod, interfaol grafik organayzerlar, interfaol metodlar, J.Tomson, E.I.Golant, N.M.Verzilin, I.Ya. Lerner va M.N.Skatkin. M.A.Danilov, B.P.Esipov, "T-jadvali", "Venn diagrammasi", "Klaster", "Toifalash jadvali", "BBB jadvali", "Baliq skeleti", "Piramida".

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ИНЖЕНЕРНЫХ ВУЗАХ
ПРИМЕНЯЮТСЯ В ОСНОВНОМ НА УРОКАХ ИСТОРИИ.

АЛЛАНАЗАРОВ ҚЎЛДОШ ОЛИМОВИЧ
ТЕРМИЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИНЖЕНЕРА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ

E-mail: quldosh0616@gmail.com

Аннотация: В данной статье учеными изучены и классифицированы понятия, применение, развитие, исследование и классификация образовательных методов, обеспечивающих совместное обучение учителя и учащихся (воспитанников), которые составляют основу современной современной системы образования. При этом отражаются сведения об интерактивных методах и графических органайзерах, их характеристиках, использовании в истории, анализ достижений и недостатков. При этом отражаются сведения об интерактивных методах и графических органайзерах, их характеристиках, использовании в истории, анализ достижений и недостатков.

Ключевые слова. Метод, интерактивные графические органайзеры, интерактивные методы, Дж. Томсон, Е.И. Голант, Н.М. Верзилин, И.Я. Лернер и М. Н. Скаткин. М.А.Данилов, Б.П.Есипов, «Т-таблица», «Диаграмма Венна», «Кластер», «Классификационная таблица», «Таблица ВВВ», «Рыбий скелет»,

«Пирамида».

INTERACTIVE METHODS ARE MAINLY USED IN HISTORY LESSONS IN
HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS TRAINING ENGINEERS

ALLANAZAROV KOLDOSH OLIMOVICH
TERMYZ STATE UNIVERSITY OF ENGINEERING AND
AGROTECHNOLOGIES
E-mail: quldosh0616@gmail.com

Abstract: This article discusses the concept, application, development, study by scientists, and classification of educational methods that ensure collaborative learning between teachers and students (pupils), which form the basis of today's modern education system. At the same time, information is provided about interactive methods and graphic organizers, their characteristics, application in history, and analysis of their advantages and disadvantages.

Keywords. Method, interactive graphic organizers, interactive methods, J. Thomson, E.I. Golant, N.M. Verzilin, I.Ya. Lerner and M.N. Skatkin. M.A. Danilov, B.P. Esipov, “T-table”, “Venn diagram”, “Cluster”, “Category table”, “BBB table”, “Fish skeleton”, “Pyramid”.

KIRISH. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida eng muhim vazifalarni o'zida mujassamlagan “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning asosiy maqsad sifatida, yoshlarning intellektual taraqqiyotga erishishini ta'minlash belgilangan. Bu yo'lda xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga imkon beradigan sharoitni shakllantirish, o'qish, mustaqil bilim olishni individuallashtirishni ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan.

Bu sohada olib borilayotgan davlat siyosati ta'lim tizimi sub'ektlarini uzluksiz takomillashtirishga, rivojlantirishga qaratilgan. Yosh avlodning taraqqiyoti, kelajak istiqboli, ijtimoiy faol, ma'naviy boy va ijodkor, intellektual yetuk shaxs sifatida kamol toptirishi respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismidir.

Endilikda ta'lim mazmuni to'plangan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, talabalarning mustaqil fikr yuritishi, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan muntazam faoliyatini ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limning rivojlanishi tamoyillariga ko'ra, talabalarimustaqil fikrlash va ijodiy bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lim mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim ro'l o'ynaydi.

Turli xil metodlar asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham talaba chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talabalar hamkorlikda ishlashda

mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda esa o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda o'zaro bilimlar, g'oyalalar hamda fikrlar almashinuvi jarayoni sodir bo'ladi. Mazkur holatlar o'zaro samimiylknita'minlaydi, yangi bilimlar olish va ularni o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qullab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. Zero, ingliz olimi J.Tomson ta'kidlaganidek, "Fan yo'lida qilinadigan xizmatlarning eng buyugi-fanga yangi g'oyalarni kiritishdir".¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ta'lim metodlari to'g'risida taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarini ko'rib chiqsak. Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning metodlar tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakani shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik, nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish metodlaridan iborat ekanligini o'z asarlarida qayd qilib o'tganlar.¹

Bugungi kunda Ta'lim metodlarining shakllanish va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan E.I.Golant, N.M.Verzilin, I.Ya. Lerner va M.N.Skatkin. M.A.Danilov va B.P.Esipovlar kabi bir qator olimlar o'z asarlarida Ta'lim metodlarining quyidagicha tasniflaydilar¹:

1.An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin, va boshqalar).

2.O'quvchilarning bilish faoliyatini tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari (I.Ya. Lerner va M.N.Skatkin).

3.Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari (M.A.Danilov va B.P.Esipov).

4.Ta'limning binar metodlari (M.I. Maxmutov).

5.Yaxlit yondoshuv bo'yicha ta'lim metodlari(Yu.K.Babanskiy)

6.Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li

- mashg'ulotlarning yangi ta'lim metodlari va interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan bir sanaladi. Manbalarni o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asming 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlarni tadbiq etish tajribasini uchratish mumkin.

XX asming 70-80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Ye.N. Ilinalar tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'llarini

topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularni samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan.¹

NATIJARLAR

Shu o'rinda metod va ta'lim metodlarining mazmun mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Metod bu - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi.

Metod bilish usuli sifatida o'rganilayotgan obyektning jihatlari va xossalarini laboratoriyada, ilmiy tadqiqot moslamasida, tajriba maydonida, shuningdek, tadqiqotchining miyasida aks ettirish usulidir.¹

Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi tadqiqot usullari va jarayonlar yig'indisidan iborat, metodning o'zi nazariyadan, tadqiqot metodikasi va texnikasidan tarkib topadi.¹

Ta'lim metodlarining tasniflari:

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari

(E.I.Golant, N.M.Verzilin, va boshqalar).¹

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, munozara	Illyustratsiya, demonstratsiya	Mashq, amaliy, laboratoriya, didaktik o'yin	O'qish, o'rganish, reja tuzish, konspekt qilish	Ko'rish, o'rganish, nazorat qilish

O'quvchilarning bilish faoliyatini tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi

(I.Ya. Lerner va M.N.Skatkin).¹

Ta'lim metodining nomlanishi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O'quv axboratlarini uzatish, o'rganilayotgan obyekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash
Reproduktiv	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish, topshiriq qismlarni mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish

Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka Doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov)¹:

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari.

Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
Axboriy-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy)¹:

- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.¹

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vatqilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

O'qitishning faol metodlari nafaqat o'quv ma'lumotlarini eslab qolishni keskin yaxshilaydi, balki ma'lumotlarini aniqlashga, amaliyotda yoki kundalik hayotda zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Kamikau va F.Makelrouning tadqiqotlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlari turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodirbo'lgan voqea hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30%; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyishetganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatigatatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.¹ Pedagogik adabiyotlarda "ta'lim metodi" tushunchasiga xilma - xil ta'riflar beriladi. Yu.K.Babanskiy "...ta'lim metodi ta'limiy vazifalarni bajarishgayo'naltirilgan o'qituvchi va talabning tartibga solingan, o'zaro bog'liq faoliyat yuritish usulidir", degan ta'rifni bergan bo'lsa, T.Allina ta'lim metodi deganda, "...talabalar bilish faoliyatini tashkil etish usuli"ni tushunadi.

Didaktika tarixida ta'lim metodlarining xilma-xil tasniflari ishlab chiqilgan. Eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, ta'lim metodlari og'zaki, amaliy, ko'rgazmali metodlarga ajratiladi, ularni tanlashda o'qituvchi, birinchidan, o'quv materiali mazmuniga, ikkinchidan, ta'lim oluvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga e'tibor berishi kerak.¹

Ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar belgilangan asosiy maqsad yo'nalishida pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirishi, loyihalashtirishi, modellashtirishi, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishi va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatga ko'ra pedagogik

jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etishi zarur hisoblanadi¹.

Ta'lim berish metodi - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li hisoblanadi.

Shu o'rinda tarix fanida qo'llaniladigan tarixiy metod - obyektning tug'ilishini, shakllanishi va rivojlanishini xronologik ketma-ketlikda o'rganishga asoslangan. Texnik sohalarda kam qo'llaniladigan metodlar hisoblanadi.¹

MUHOKAMA. Tarix fanini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metod va vositalar xilma - xil bo'lib, ma'lumotlarning mazmuni, murakkabligiga qarab qo'llaniladi. Barcha tarix kurslarini o'rganish talabalardagi tarixiy tushunchalarning chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan o'qituvchining talabalarni fikrlash qobiliyatini, qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila olishiga bog'liq.

Tarixiy tushunchalar hosil qilishda talabalarining voqea va hodisalarni, analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatini shakllanishida ta'limning faol metodlari, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Tarix darslarida turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish-ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)larning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi talab etiladi. Bunda, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Bahs-munozara", "Muammoli vaziyat", "Yo'naltiruvchi matn", "Loyiha", "Rolli o'yinlar" kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash ijobiy natijalarga olib keladi. Bunday metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi.

Bugungi kunda tarix fanini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati katta bo'lib, interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchi-yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul hisoblanadi. "Interaktiv" so'zi ingliz so'zidan olingan bo'lib "Interakt", ya'ni "Inter" - bu "o'zaro", "akt" - "harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini bildiradi.¹

Interfaol metodlar - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlardir. Bunday metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi o'quvchi (talaba)ni dars jarayonidafaol ishtirok etishga undaydi. Jarayon o'quvchi (talaba)dan dars mobaynida faollikni talab etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi va hk.lar.

Grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmalitaqdim etish vositasi hisoblanadi.

Interfaol grafik organayzerlar: “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Insert”, “BBB jadvali”, “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”,

“Piramida”, “Nilufar guli sxemalari”, “Kaskad”, “Qanday?” va hk.lar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslanadi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlari ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanilmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Taniqli tarixchi-metodist olim A. I. Strajyov tarix o'qituvchilari uchun egallashi zarur bo'lgan bilim va metodik mahorat xususida fikr yuritar ekan, shunday yozadi:

-birinchidan - tarixni ilmiy-metodologik jihatdan batafsil o'zlashtirib olmog'i kerak;

-ikkinchidan - turli sohalar bo'yicha aniq, tarixiy bilimlar bilan qurollangan bo'lmog'i kerak;

-uchinchidan - keng miqyosdagi umumma'naviy, umumbashariy dunyoqarashga ega bo'lmog'i kerak;

-to'rtinchidan - pedagogik hamda psixologik bilimlarni o'z ichiga olgan, mustaqil pedagogik fan va san'at sifatida shakllangan fan - tarix o'qitish metodikasi bilan har tomonlama qurollangan, zamonaviy tarix o'qituvchisiga xos sifatlar majmuining sohibi bo'lmog'i kerak¹.

Xulosa. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash hamda oliy ta'limning sifat va

samaradorligini yuksaltirish pedagog xodimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi belgilab berildi. Ayni paytda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida ham turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchi (talaba)larning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularningtasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi.

Bugungi kunda tarix darslari samaradorligining muhim shartlaridan biri bu- o'qituvchi va o'quvchi (talaba)larning haqiqatni birgalikda izlashi va ularning butun dars jarayonida faol ishtirok etishlari ya'ni ta'lim metodlar, interfaol metodlardan, grafik organayzerlardan foydalanishlaridir. Albatta, bunday vaziyatda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishini amaliyot ko'rsatib turibdi. Bugungi informatsion axborot texnologiyalari zamoni har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rnini va roliga har tomonlama jiddiy qarash vazifasini yuklamoqda. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini puxta egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an'anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi lozim. Shunday ekan, ta'limjarayonini o'qituvchi va o'quvchi (talaba) hamkorligida ongli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb qarash asoslidir. Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'limtizimining har bir bosqichida o'rganiladigan fanlar, ularning xususiyatlari, o'quvchi (talaba)larning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratish muhim sanaladi. Chunki, bir xil yoshdagi o'quvchi (talaba)larning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko'ra tushunishi, fikrlashi, ishni bajarish qobiliyati turlicha bo'ladi. Shuning uchun muammoli vaziyatni yaratishdan avval o'quvchi (talaba)ni ruhiy jihatdan puxta tayyorlash zarur bo'ladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi. Dars jarayonida muammoli vazifalarni hal etishda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishga e'tibor berish maqsadg muvofiqdir. Tarix darslarida turli ta'lim texnologiyalaridan hamda metodlardan foydalanish o'rganilayotgan davrga oid mavjud tarixiy faktlarning talabalar xotirasida mustahkam o'rin olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchi (talaba)lar dunyoqarashida ko'rib chiqilayotgan tarixiy davrga nisbatan o'zining mustaqil fikriga ega bo'lish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I. Pedagogika. -T.: Noshir, 2001.
2. Mavlonova.R., Voxidova., N, Raxmonqulova.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: Fan va texnika, 2010.
3. Педагогика: Учебник / Л.П. Крившенко, М.Е. Вайндорф-Сысоева и др.; Под

ред. Л.П. Крившенко. М.: 2004.

4.Tolipov, O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat -T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.

5.Shadmanova S. Tarix tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari. –T.: Barkamol fayz media, 2018.

6.Alimova D.A., Ixamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi.–T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

7. Olimovich A. Q. et al. Natyurmortni Tasvirlashda Rangli Bo'yoqlardan Foydalanib Ranglovhalar Ishlashni Tutgan O'rni //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 16-19.

8. Олимович А. Қ. БИНО ВА ИНШООТЛАР ДЕВОРЛАРИНИ НАМЛИКДАН САҚЛАШ МУАММОЛАРИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 284-294.

9. Олимович А. Қ., Шарипов Б. Х. МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР АСОСИДА ТЕМИР ЙЎЛ ҲУДУДИ ВА ВОКЗАЛЛАРИ, ЁН АТРОФИНИ ЛАНДШАФТ ЕЧИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 55. – №. 5. – С. 93-101.

10. Qo'ldosh A. Q. A. et al. Interactive Methods of Teaching English in Uzbekistan //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 6-9.

11.Abdullayeva Sh.A., Nusratova H.Ch., Abdullayev F.A., To'rayev A.B. Umumiy pedagogika. -T.: Zuxra baraka biznes, 2021.

12. Olimovich A. K., Abbos K., Zhavlonbek S. Yukori potentialli ikkilamchi issiqlik energisi resurslaridan foydalanish //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 10-13.

13.Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

14Махмудов S.Yu., Umaraliev M.A., Karimova G.K. Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlar monitoringi: tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish. – T.: 2015.

15.Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasdi. – T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2018.

16.Yo'ldoshev J., Yo'ldasheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim – sifat kafolati. – T.: 2008.

17.Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. –T.: Turon-iqbol. 2010.

18. Алланазаров К. TALABALARNING TANLAGAN KASBIY FAOLIYATI VA IJODIY QOBILİYATLARINI INTERFAOL METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH //Ижтимоийгуманитар фанларнинг долзарб

- муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3.
19. Olimovich A. K. et al. Renewable Energy Sources and Their Improvement in the Territory of Uzbekistan //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 11-15.
20. Olimovich A. K., Tursunpulatovich S. A. Analysis of Innovative Approaches to the Drying of Raw Cotton in Solar Dryers //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 347-349.
- 21 Olimovich A. Q., Khudoymurodovich O. K. The role and importance of plants in environmental protection //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 9. – С. 937-941.
22. Алланазаров Қ. О., Эрданова З. О. СУВ-КЎНГИЛОЧАР СОҒЛОМЛАШТИРИШ МУАССАСАЛАРИ АРХИТЕКТУРАСИНИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS". – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 186-192.
23. Bekkamov M. P. O ‘ZBEKISTON SHAHARLARI XUDUDIDA PIYODALAR O ‘TISH KO ‘PRIKLARINI BARPO QILISH //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 90-95.
24. Olimovich A. Q. Interfaol Ta’lim Va Uning Didaktik Imkoniyatlari //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 9-15.
25. Olimovich A. K. et al. Renewable Energy Sources and Their Improvement in the Territory of Uzbekistan //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 11-15.